ADVOKATLAR ETIKASINI XALQARO TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY TABIATI VA MANBALARI

Ibodullayev Javohir
Abu Rayhon Beruniy universiteti
Samarqand kampusi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqaro tijorat arbitrajida ishtirok etuvchi advokatlarning kasbiy xatti-harakatlarini va etikasini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy manbalarning huquqiy tabiati tahlil qilinadi. Xalqaro yuristlar assotsiatsiyasi (IBA) tomonidan ishlab chiqilgan Yuridik kasb yuritish bo‘yicha xalqaro printsiplar (2011-yil) va Tomonlar vakilligi bo‘yicha qo‘llanmalar (2013-yil) hujjatlari misolida ularning soft law (yumshoq huquq) xarakteriga egaligi, majburiy emasligi va shartnoma asosida qo‘llanilishi asoslanadi. Shuningdek, ushbu hujjatlarning xalqaro arbitraj amaliyotida qo‘llanilish darajasi va bu boradagi muammolar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: xalqaro arbitraj, advokat etikasi, soft law (yumshoq huquq), IBA Guidelines, tomonlar vakilligi.

Xalqaro tijorat arbitrajida ishtirok etuvchi advokatlar, milliy sud jarayonlaridan farqli o‘laroq, ko‘pincha bir nechta yurisdiksiyaning professional axloq qoidalariga bir vaqtning o‘zida bo‘ysunishi mumkin. Bunday holat, ayniqsa, jarayonda kontinental va anglo-sakson huquq tizimlariga mansub advokatlar ishtirok etganda, ularning kasbiy majburiyatlari o‘rtasida kolliziyalarga olib kelishi mumkin. Milliy advokatura qonunchiligi odatda faqat o‘z yurisdiksiyasi doirasidagi jarayonlarni nazarda tutgani sabab, xorijda o‘tkaziladigan arbitraj jarayonlariga to‘liq tatbiq etilmasligi mumkin. Aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqsadida xalqaro darajada bir qator yumshoq huquq (soft law) hujjatlari ishlab chiqilgan. O‘zbekiston Respublikasining Toshkent xalqaro arbitraj markazini (TIAC) mintaqaviy arbitraj markaziga aylantirish borasidagi strategik maqsadlarini hisobga olsak, ushbu xalqaro standartlarning huquqiy tabiatini va ularning milliy amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatlarini ilmiy jihatdan o‘rganish alohida dolzarblik kasb etadi.

IBA Arbitraj qo‘mitasi huzurida 2008-yilda Advokatlar xatti-harakati bo‘yicha maxsus guruh (Task Force on Counsel Conduct) tashkil etilgan bo‘lib, uning vazifasi xalqaro arbitrajda advokatlar xatti-harakatiga oid turli va bir-biriga zid milliy normalarni tahlil qilish edi. 2010-yilda o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari arbitraj amaliyotchilari o‘rtasida o‘z va qarama-qarshi tomon advokatining qaysi etik normalarga bo‘ysunishi borasida sezilarli noaniqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu asosda 2011-yilda Yuridik kasb yuritish

bo‘yicha xalqaro printsiplar, 2013-yilda esa Xalqaro arbitrajda tomonlar vakilligi bo‘yicha qo‘llanmalar IBA tomonidan qabul qilindi. Ikkinchi hujjat 27 ta qoidadan iborat bo‘lib, arbitrlar bilan muloqot, tribunalga taqdim etiladigan hujjatlar, ma'lumot almashish va oshkoralik, guvoh hamda ekspertlar bilan ishlash, shuningdek nomunosib xatti-harakat uchun qo‘llaniladigan choralarni tartibga soladi.

Ko‘rib chiqilayotgan hujjatlarning huquqiy tabiatini tushunish uchun ularning qoidalar (rules) emas, balki qo‘llanmalar (guidelines) deb nomlanishiga alohida e'tibor qaratish lozim bu atama tanlovi ularning shartnoma xarakteriga ega ekanligini ta'kidlaydi. IBA hujjatlarining o‘zida ham ular amaldagi majburiy qonunchilik, professional intizomiy qoidalar yoki tomonlar kelishgan arbitraj reglamentini bekor qilish maqsadida yaratilmagani alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Tomonlar ushbu qo‘llanmalarni to‘liq yoki qisman o‘zaro kelishuv asosida qo‘llashga qaror qilishlari mumkin; arbitraj tribunali esa, agar o‘zida bunday vakolat borligini aniqlasa, o‘z ixtiyoriga ko‘ra ulardan foydalanishi mumkin. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, advokatlarning bevosita etik xatti-harakatini tartibga soluvchi Tomonlar vakilligi bo‘yicha qo‘llanmalarni arbitrlarning xolisligi va mustaqilligiga oid manfaatlar to‘qnashuvini tartibga soluvchi boshqa IBA hujjati Xalqaro arbitrajda manfaatlar to‘qnashuvi bo‘yicha qo‘llanmalardan farqlash zarur; ikkinchisi 2004-yilda qabul qilingan, 2014-yilda va yaqinda, 2024-yilda yangilangan bo‘lib, u arbitrlarga, advokatlarning o‘ziga emas, tatbiq etiladi. Ikkala hujjat ham yumshoq huquq tabiatiga ega bo‘lsa-da, tartibga solish predmeti turlicha ekanligi ilmiy tadqiqotda aniq farqlanishi lozim.

Tomonlar vakilligi bo‘yicha qo‘llanmalarning qabul qilinganiga o‘n yildan ortiq vaqt o‘tgach o‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, ushbu hujjat IBA ning boshqa yumshoq huquq vositalari orasida eng kam qo‘llaniladigani bo‘lib chiqdi advokatlar xatti-harakati masalasi ko‘tarilgan arbitraj jarayonlarining yigirma foizidan kamida unga murojaat qilingan. Shuningdek, ushbu qo‘llanmalarga bevosita asoslangan ochiq sud-arbitraj amaliyoti deyarli topilmadi, ba'zi yurisdiksiyalarda (xususan, Shveytsariyada) esa ularga nisbatan jiddiy tanqidlar bildirilgan. Bu holat qo‘llanmalarning shartnoma va ixtiyoriylik xarakteridan kelib chiqadigan tabiiy oqibat hisoblanadi: ular tomonlar yoki tribunal tomonidan alohida qaror qilinmasa, avtomatik tarzda qo‘llanilmaydi. Natijada, turli milliy etik normalarga bo‘ysunuvchi advokatlar o‘rtasidagi kolliziya muammosi (ikki yoqlama deontologiya) xalqaro yumshoq huquq darajasida hali to‘liq hal etilmagan bo‘lib qolmoqda.

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, xalqaro arbitrajda advokatlar etikasini tartibga soluvchi asosiy xalqaro hujjatlar majburiy emas, balki shartnoma va ixtiyoriylik asosiga qurilgan yumshoq huquq tabiatiga ega. Bu,

bir tomondan, xalqaro arbitrajning moslashuvchan tabiatiga mos keladi, ikkinchi tomondan esa amaliyotda ularning qo‘llanilish darajasi past bo‘lishiga va milliy etik normalar o‘rtasidagi kolliziyalarning hal etilmay qolishiga olib kelmoqda. Ushbu xulosalar O‘zbekiston uchun amaliy ahamiyatga ega: agar Toshkent xalqaro arbitraj markazi o‘z reglamentida IBA qo‘llanmalariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri (yoki taraflar tomonidan kelishilgan holda) murojaat qilish mexanizmini nazarda tutsa, bu xalqaro standartlarning markazda o‘tkaziladigan jarayonlarda amalda qo‘llanilishini kafolatlashning samarali vositasiga aylanishi mumkin. Ushbu masala tadqiqotning navbatdagi bo‘limlarida xususan, kontinental va anglo-sakson tizim advokatlari o‘rtasidagi amaliy kolliziyalar hamda TIAC tajribasi misolida batafsilroq ko‘rib chiqiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Bar Association. IBA Guidelines on Party Representation in International Arbitration. London: IBA, 2013.
2. International Bar Association. International Principles on Conduct for the Legal Profession. London: IBA, 2011.
3. International Bar Association. IBA Guidelines on Conflicts of Interest in International Arbitration. London: IBA, 2024.
4. Bedard J., Kalantirsky Y. The creation of the IBA Guidelines on Party Representation in International Arbitration // IBA Arbitration Committee materials, 2023.
5. International Bar Association, Jus Mundi. The Party Representation Guidelines' 10th anniversary. 2023.